

XUDOYAROV Anvar Aidjanovich,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi
kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi
nvarxudoyarov111@gmail.com*

SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA INVESTITSIALARNI JALB ETISHNING AHAMİYATI

ВАЖНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В РАМКАХ ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА

THE IMPORTANCE OF INVESTMENT ATTRACTION WITHIN THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION

Annotatsiy: XXI asrga kelib iqtisodiy globallashuv yanada kengayib bormoqda hamda ilmfan va texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Dunyoning barcha davlatlari tinchlik va taraqqiyotning tarixiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, turli xatarlar va qiyinchiliklarni kamaytirish uchun mintaqaviy hamkorlikka qadam qo'yishni tezlashtirmoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tarixida Shanxay hamkorlik tashkilotining tashkil etilishi va rivojlanishi ulkan konstruktiv iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tayanch so'zlar: Shanxay hamkorlik tashkiloti, investitsiya siyosati, biznes kengash, konstruktiv iqtisodiy loixa, milliy manfaatlar, strategik menejment, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya.

Аннотация. Шанхайская организация сотрудничества, возникшая в ответ на вызовы глобализации и региональной безопасности, играет все более важную роль в современном мире. Совместные усилия стран-членов ШОС направлены на укрепление доверия, развитие экономического сотрудничества, борьбу с терроризмом и экстремизмом. Организация

обладает значительным потенциалом для дальнейшего расширения и углубления взаимодействия, способствуя формированию многополярного мира.

Ключевые слова: Шанхайская организация сотрудничества, инвестиционная политика, деловой совет, конструктивный экономический проект, национальные интересы, стратегическое управление, региональная экономическая интеграция.

Annotatsion: By the 21st century, economic globalization is expanding and science and technology are rapidly developing. All the countries of the world are speeding up their steps towards regional cooperation in order to effectively use the historical opportunities for peace and development, and to reduce various risks and difficulties. In the history of modern international relations, the establishment and development of the Shanghai Cooperation Organization is of great constructive economic importance.

Key words: Shanghai Cooperation Organization, investment policy, business council, constructive economic project, national interests, strategic management, regional economic integration.

KIRISH

Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni targ'ib etish bilan shug'ullanadigan Shanxay hamkorlik tashkilotining Biznes kengashi tashkilot doirasida innovatsion hamkorlik uchun istiqbolli platforma hisoblanadi [1]. Tashkilot ulkan ilmiy salohiyatga ega bo'lgan davlatlarni birlashtiradi. Og'ir sanoat va yuqori texnologiyalar sohasidagi loyihalarni amalga oshirish ulkan salohiyatni va ko'plab xarajatlarni talab etadi. Shu bois, yagona bir mamlakat o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib ularni amalga oshirishga qiyinaladi. Ko'p tomonlama hamkorlik yangi turdagi mahsulotlar va ilg'or texnologiyalarni yaratish uchun moliyaviy resurslarni va intellektual salohiyatni safarbar qilishga imkon beradi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-25-yanvar kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifi davomida Shavkat Mirziyoyev

“Xitoy O‘zbekiston iqtisodiyotiga eng ko‘p investitsiya kiritayotgan davlatlardan biridir. Mamlakatimizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 2300 dan ziyod kompaniya va korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘tgan yillar davomida xitoylik sarmoyadorlar O‘zbekiston iqtisodiyotiga qariyb 14,6 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritgani barchamizni xursand qiladi” deb ta’kidlab o‘tdi [2].

ShhTga a‘zo davlatlar o‘rtasida biznes aloqalarni mustahkamlash vazifalarini amalga oshiruvchi ShhTBizneskengashi ijtimoiy-iqtisodiy va savdo-sanoat yo‘nalishidagi loyihalarni ko‘p tomonlama rivojlantirish, zamonaviy va istiqbolli texnologiyalardan foydalangan holda yangi ishlab chiqarish sohalarini ochish va ShhTga a‘zo davlatlar hududlariga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Shulardan kelib chiqib, kengash investitsion va innovatsion loyihalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb etish bo‘yicha quyidagi kompleks xizmatlarni taklif etadi:[3].

- dastlabki ekspress-audit biznes g‘oyalar, ularning amaliyotga tadbiiq eta olinish darajasi, iqtisodiy samaradorligi va aniq makon-zamon sharoitlarga to‘g‘ri kelish holatini inobatga olgan holda rejalar tuzish;
- strategik menejment va biznesni rejalashtirish bo‘yicha maslahat berish;
- investitsion loyihalarini chuqur tahlil qilish;
- biznes-rejalar, investitsion loyihalarni puxta ishlab chiqish;
- potensial investorlar o‘rtasida aniq loyihalarni ishlab chiqish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish;
- manfaatdor investorlarga tayyor investitsion loyihalarni taqdimoti va himoyasini qilib berish hamda shartnoma tuzilgunga qadar loyihani qo‘llab-quvvatlash;
- investitsiya loyihalarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish va loyihalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish;

- investitsiya loyihalar mualliflari (tashabbuskorlari) va manfaatdor investorlar o‘rtasidagi uchrashuvlarni tashkil etish va o‘tkazish.

Korxonalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni qidirish va jalb etish ShhT Biznes kengashi doirasida amalga oshiriladi. Investitsiyalar maxsus investitsiya fondlari, venchur fondlari, investitsiya kompaniyalari va xususiy investorlar, shuningdek strategik investor hisoblanadigan kompaniyalar tomonidan jalb qilinishi mumkin.

Bugungi kunda ShhTning Biznes kengashi Xitoy, Hindiston, Pokiston va Turkiyalik bir qator sarmoyadorlar, shuningdek, investitsiya fondlari bilan Rossiya Federatsiyasi hududidagi loyihalarga investitsiya kiritish borasida qo‘shma hamkorlik qilmoqda va ular quyidagi tarmoqlarga yo‘naltirilmoqda: oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi, yengil sanoat, mashinasozlik, transport, logistika, neftni qayta ishlash, qurilish, yog‘ochni qayta ishlash, muqobil energiya manbalari, innovatsiyalar va texnologiyalar.

Investorlar bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, aloqa vositalarini takomillashtirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish muammolarini hal etish, axborot almashinuvi, qo‘shma ilmiy-tadqiqot va rivojlantirish loyihalarini olib borish, sayyohlikni rivojlantirish va kasb-hunar ta‘lim tizimini takomillashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida globallashtirish ta‘sirida davlatlarning iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi ortib bormoqda, xalqaro raqobatga bardosh berish maqsadida mamlakatlar o‘rtasida integratsiya birlashmalar vujudga kelmoqda va hamkorlikning yangi shakllariga o‘tish tendensiyalari kuzatilmoqda. Ayni damda xalqaro iqtisodiy integratsiya global iqtisodiy hayotning ajralmas bir bo‘lagiga aylanib bormoqda, o‘z ko‘lamini kengaytirib yanada murakkab shakllarini vujudga keltirmoqda hamda ushbu jarayonda mamlakatlarni faol ishtirok etishga jalb etmoqda. Integratsiya jarayonlarida davlat ishtiroki darajasi va iqtisodiyotning

rivojlanish darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri proporsional munosabat mavjud.

Aslini olganda, ShhT siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, energetika, transport, atrof-muhit muhofazasi, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalarida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan.

Hozirga kelib ShhT Markaziy Osiyoda iqtisodiy jihatdan muhim rol o'ynaydi va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani yaratishda samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Tashkilotga a'zo barcha davlatlar va kuzatuvchilar ShhT doirasida milliy manfaatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor. ShhTning asosi bo'lib o'zaro ishonchni mustahkamlash va chegara hududlardagi harbiylar sonini kamaytirishni maqsad qilgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida tuzilgan va tarixda "Shanxay beshligi" nomini olgan tashkilot hisoblanadi.

ShhTga a'zo davlatlar uchun iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida infratuzilmani yaxshilash, bojxona bojlari va tariflarini tenglashtirish, jumladan savdo-sarmoyaviy hamkorlikni soddalashtirishni nazarda tutadigan mintaqaviy hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy rivojlanishning turli darajalariga ega bo'lgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ham investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida bir qancha Qonunlar, Prezident farmonlari qabul qilingan. Shulardan biri, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonidir [4].

Unga ko'ra, "Yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadigan muddatga kiritilgan to'g'ridan to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari hajmiga qarab, yer solig'i, mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari beriladi. To'g'ridan-to'g'ri xususiy

chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliq imtiyozlardan foydalanishga haqli.", etib belgilangan. Bu chet el investitsiyalari uchun mamlakatda ehtiyoj yuqori ekanligini ko'rsatadi. ShhT doirasidagi barcha mamlakatlar ham ushbu turdagi investitsion siyosatni qo'llab-quvvatlaydi va mintaqaviy investitsion hamkorlik odamlarga foyda keltiradi.

Jumaladan, ShhT doirasida investitsiyalar oqimi izchil o'sib bormoqda. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, ShhT davlatlari yildan-yilga chet el investitsiyalari uchun jozibador bo'lib bormoqda. Misol uchun, 2001-yilda ShhT davlatlariga kiritilgan TTXI hajmi 52.6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 231.5 mlrd. AQSh dollariga yetgan [5]. Bu borada Xitoyning boshqa a'zo davlatlarga kiritgan investitsiyalari hajmi sezilarli darajada o'sib borgan.

Chet ellik sarmoyadorlar uchun mezbon hukumat oldida turgan maqsadlar, shuningdek, hukumatning xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan siyosati muhim ahamiyatga ega. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar soni juda ko'p, shuning uchun u yangi texnologiyalar transferi va yanada murakkab boshqaruv qarorlarini qo'llash bilan birga hamohang bo'ladi. ShhTga a'zo davlatlar iqtisodiyoti va global investitsiya bozorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar rolini ko'rsatish uchun, biz milliy iqtisodiyotlardagi TTXIning rolini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni bir qator tahlil qilib chiqamiz.

ShhTning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning indeksiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar uchun eng jozibador davlatlar Xitoy va Hindiston hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ShhTga a'zo davlatlar tomonidan erishilgan TTXIning potensial ko'rsatkichlari bo'yicha pozitsiyalar ushbu davlatlarning iqtisodiyotiga investitsiyalar oqimlari bilan ko'proq bog'liqdir.

**ShhTga a'zo mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqimi,
mln AQSh dollarida, 2017-2022-yillar¹[6].**

Davlatlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Rossiya	25 954	13 228	32 076	10 410	38 639	-18 681
Xitoy	136 315	138 306	141 225	149 342	180 957	189 132
Qozog'iston	4 714	3 898	3 284	3 670	3 337	6 108
O'zbekiston	1 797	625	2 316	1 728	2 276	2 531
Qirg'iziston	-107	144	404	-402	226	291
Tojikiston	307	360	364	107	84	174
Hindiston	39 904	42 156	50 558	64 072	44 763	49 355
Pokiston	2 496	1 737	2 234	2 057	2 147	1 339
Eron	5 019	2 373	1 508	1 342	1 425	1 500

UNCTAD tashkiloti metodologiyasiga tayangan holda, investitsiyalarning indikativ va potentsialli indekslaridan foydalanib, ShhTga a'zo davlatlarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari uchun integral investitsiyalar jozibadorligi matritsasi tuzib chiqildi. Unga ko'ra, ShhT mamlakatlarining investitsion jozibadorligi, investitsiyalarni jalb qilish uchun yaratilgan imkoniyatlar ko'lamiga haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Jadvalga ko'ra, Rossiya, Xitoy va Hindiston TTXIlar uchun yuqori potentsialli jozibadorlikka ega va shu sababli, matritsaning 1-guruhidan joy olgan. Qozog'iston esa past potensialga ega bo'la turib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qilayotgan davlat hisoblanadi. O'zbekiston va Eronda esa

vaziyat biroz boshqacha, ya'ni ushbu mamlakatlar yuqori investitsiya qabul qilish salohiyatiga ega, ammo amaldagi ko'rsatkichlar kutilganidek yuqori emas.

Shuni ta'kidlash joizki, ShhTning salohiyati tobora ortib bormoqda, tashkilot nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda zarur vakolatlarni qo'lga kiritmoqda. Mavjud muammo va qarama-qarshiliklarga qaramasdan, ShhT hozirgi kunda mintaqadagi barcha davlatlararo uyushmalarni, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari uchun zarur va istiqbolli ekanligini e'tirof etish lozim. Shu bois, Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosatida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va ShhT doirasida iqtisodiy-investitsiyaviy aloqalarni mustahkamlash tendensiyalarining borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

¹ UNCTAD tashkilotining World Investment Report 2023 yillik hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.//URL: https://unctad.org/system/files/official-document/wir2023_en.pdf

ShhT mamlakatlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini jalb qilish imkoniyati matritsasi [7].

	TTXIning yuqori ko‘rsatkichli indeksi	TTXIning past ko‘rsatkichli indeksi
TTXIning yuqori potensial indeksi	Rossiya, Xitoy, Hindiston	O‘zbekiston, Eron
TTXIning past potensial indeksi	Qozog‘iston, Pokiston	Tojikiston, Qirg‘iziston

Shunday qilib, ShhTga a‘zo mamlakatlar faoliyatining yuqoridagi tahlili bizni O‘zbekistonning ShhTga a‘zo davlatlar bilan investitsiyaviy hamkorlik yo‘nalishlarini aniqlashga va ularni yanada rivojlantirishga imkon beradi.

XULOSA

Xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston uchun ShhT mamlakatlari bilan savdo tartibini soddalashtirish, mamlakatlar o‘rtasida tovar ayirboshlash, kadrlar almashinuvi va moliya tizimini rag‘batlantirish, shuningdek, ishlab chiqarish, transport va logistika, axborot va kommunikatsiya sohalarida ham o‘zaro investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish o‘zaro manfaatlidir.

Shuningdek, ShhT uchun Xitoy tomonidan ilgari surilgan “Bir makon – bir yo‘l” global tashabbusi istiqbolli platforma bo‘lib, uni qurilishida barcha davlatlar muhim rol o‘ynaydi. Markaziy Osiyoda yirik loyihalar ko‘pincha ShhT bilan bog‘langan va “Bir makon – bir yo‘l”ning rivojlanishi ham ushbu hududdagi davlatlarga bog‘liq.

Aslida, “Bir makon – bir yo‘l” ko‘p tomonlama hamkorlik, o‘zaro manfaatdorlikning bir modeli sifatida ishlab chiqilgan loyiha bo‘lib, ShhTning ikki asosiy yo‘nalishlari –xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikga asoslangandir. Xavfsizlik va iqtisodiyot vazifalari bir-biriga yaqindan bog‘liq bo‘lganligi bois bir-biriga imkoniyat yaratadi va o‘zaro rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

ShhTga a‘zo davlatlar rahbarlarining Ostonada bo‘lib o‘tgan sammitida rasmiy ravishda Hindiston va Pokistonni, Samarqand

sammitida Eronni ishtirokchilar sifatida qabul qilinishi, ShhT hudud jihatidan sharqda Xitoyning LyanYunganasi, g‘arbda Rossiyaning Kaliningrad, shimol va sharqda esa Hind okeani va Shimoliy qutbgacha cho‘zilgan xalqaro regional tashkilotga aylandi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Привлечение инвестиций//URL: http://russian.news.cn/2016-05/05/c_135334656.htm.
2. Shavkat Mirziyoyev Xitoy hukumati rahbariyati bilan uchrashdi. Iqtisodiyot, 24.01.2024//URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/24/china-visit/>.
3. Привлечение инвестиций//URL: http://russian.news.cn/2016-05/05/c_135334656.htm.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 10.04.2012-y// URL: <http://www.lex.uz>.
5. Yan Dexue, Economic Cooperation under the Shanghai Cooperation Organization: Achievements and Prospects.//URL: https://rus.ecnu.edu.cn/u/5_2111/59269_1.pdf
6. UNCTAD tashkilotining World Investment Report 2023 yillik hisoboti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.//URL: https://unctad.org/system/files/official-document/wir2023_en.pdf
7. Удалов О.Ф., Бодрикова О.А., Второв В.В. Анализ инвестиционного сотрудничества стран в области экономики//Шанхайской Организации Сотрудничества, 2015. №9 (93). –С. 14-19.